




# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



7/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

7/2023



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



[www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

<b>Алиева Н.Х.</b>	Семантические особенности компьютерных фразеологических единиц и их классификация в разносистемных языках	98
<b>Axmedova M.B.</b>	Ingliz tilida “Spirituality” semantik maydoni: sotsial va lingvistik tahlil	106
<b>Панжиев Н.П.</b>	Сравнительный анализ согласных систем русского и узбекского языков с учётом влияния родного языка	111
<b>Sobirova Z.R.</b>	Mutual translation and its problems of touristic terms in English and Uzbek languages	118
<b>Achilova R.A.</b>	Allusive comparison	123
<b>Yusupova D.Y., Furqatova M.</b>	Ҳалима Худойбердиеванинг лексик-поэтик бирликлардан фойдаланиш маҳорати	126
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Seytnazarova I.E.</b>	Шеърятда бадий такроп ва унинг турлари	132
<b>Murodova G.A.</b>	Maxtumquli ijodida Ahmad Yassaviy g‘oyalarining badiiy in’ikosi	138
<b>Boltayeva G.Sh.</b>	Muxammas janrining nazariy asoslari	144
<b>Bozorova V.M., Maqsudova M.U.</b>	The term “American culture” in the literary works of world writers	147
<b>Elmanova M.T.</b>	Family dissonances in Joyce Carol Oates’ novel «Night. Dream. Death. Stars»	153
<b>Davletova Sh.B.</b>	The symbol of women in Muhammad Yusuf’s poetry	157
<b>Qayumova N.M.</b>	Dunyo sonetchiligiga nazar	163
<b>Shomurodova S.G‘.</b>	Aza marosimi qo‘shiqdarida motam kiyimlarining tasviri	168
<b>Sharipov M.M.</b>	O‘zbek jamiyatida xizmatkor obrazi rivoji va adabiyotda “uchinchi odam” tushunchasi	173
<b>Пардаева Д.Р.</b>	Амир Тимур в русскоязычной литературе: комплексный анализ образа и его исторического контекста	177
<b>Ўроқова Н.Ё.</b>	Замонавий шеърятда от образи талқини	181
<b>Tashova D.S.</b>	Individual badiiy shakllarga xos xususiyatlar	185
<b>Safarova Z.T.</b>	Tarbiya romanlarining badiiy adabiyotdagi genezisi va o‘rni	192
<b>Shermamatova Sh.B.</b>	Avaz O‘tarning “Yo‘q bo‘ling...” nomli g‘azalining talqinlari tahlili	197
<b>Бабаев О.А.</b>	Немисзабон мамлакатларда форс адабиёти	202
<b>Yo‘ldosheva M.B.</b>	Badiiy tarjimada portret tasvirining milliy-madaniy ta’sirini ifodalanishi	207

УЎК 82-31-342(09)

TARBIYA ROMANLARINING BADIY ADABIYOTDAGI GENEZISI VA O'RNINI

*Safarova Zilola Tolibovna,  
Buxoro davlat universiteti Ingliz  
adabiyotshunosligi kafedrası f.f.f.d., (PhD)*

**Annotatsiya.** Adabiyotda keng tarqalgan yirik janr sifatida roman turli shakllarda yaratilib, taraqqiy topib bordi. Tarbiya romanlari ham Yevropada paydo bo'lib, asta-sekin boshqa adabiyotlarga ham kirib keldi. Ularning bari yosh qahramonlarning sarguzashtlari bayoni orqali jamiyatni real aks ettirishi hamda shaxsning ma'nan va aqlan o'sib borishini yoritib berishi bilan mushtaraklik kasb etadi. Ushbu maqolada mazkur janrning yuzaga chiqishi va jahon adabiyotdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** roman, janr, tarbiya romani, qahramon, uslub, hikoyanavislik, badiiy adabiyot

ГЕНЕЗИС И РОЛЬ РОМАНОВ ВОСПИТАНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация.** Как крупный жанр, широко распространённый в литературе, роман создавался и развивался в различных формах. Романы воспитания тоже появились в Европе и постепенно вошли в другие сферы литературы. Все они схожи тем, что реалистично отражают общество через повествование о приключениях юных героев и освещают духовный и интеллектуальный рост личности. В данной статье рассказывается о возникновении этого жанра и его значении в мировой литературе.

**Ключевые слова:** роман, жанр, романы воспитания, герой, стиль, повествование, художественная литература.

GENESIS AND PLACE OF EDUCATIONAL NOVELS IN FICTION LITERATURE

**Abstract.** As a major genre widely spread in literature, the novel was created and developed in various forms. Educational novels also appeared in Europe and gradually entered other literature. All of them have in common the fact that they realistically reflect the society through the narration of the adventures of young heroes and illuminate the spiritual and intellectual growth of the individual. This article talks about the emergence of this genre and its importance in world literature.

**Key words:** novel, genre, educational novels, hero, style, narration, fiction.

**Kirish.** Aytish mumkinki, ma'rifatchilik davri adabiyotida ma'rifat orqali tarbiyalash mavzusi va g'oyasiga murojaat qilish yetakchi o'ringa ko'tarildi. Shuning uchun ingliz ma'rifatchilik adabiyotida ham bu borada maxsus "tarbiya roman"lari silsilasi vujudga keldi. Ma'lumki, yetim, o'gay bolalarning ilm olishi uchun sharoiti hamisha ham yetarli emas edi. Shu sababli, yaratilgan asarlarda yetim, o'gay bolalar taqdiri, ilmsizlik fojiasi alohida mavzu sifatida yoritila boshlandi.

Amerika va Germaniyada bu davrda "Tarbiya roman"lari paydo bo'la boshlaganini ko'rish mumkin. Jumladan, Germaniyada Kristof Martin Vilandning "Agaton tarixi" (1766-1767) ("The History of Agathon") hamda Iogann Volfgang Gyotening "Vilgelm Meysterning o'qish yillari" (1795-1796) ("Wilhelm Meisters Apprenticeship") romanlari yozilgan bo'lsa, Amerikada Mark Tvenning "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" (1884) ("The adventures of Huckleberry Finn") va Jerom Selinjerning "Javdarzordagi xaloskor" (1951) ("The Catcher in the Rye") kabi romanlari ushbu janrda yaratilgan ilk muvaffaqiyatli asarlardan hisoblanadi. [1,22]

O'zbek adabiyotshunos olimlari roman janriga xos belgilarni tadqiq etish borasida ancha izlanishlar olib borishdi. Agar dastlabki tadqiqotlarda hajmning kattaligi va mavzu janrning asosiy belgilari sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik romanning mohiyati o'zga unsurlardan ham qidirilganini ko'rish mumkin. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov aytganidek, "... jamiyatning joriy holatini badiiy idrok etish, u haqdagi hukmini badiiy konseptsiya tarzida shakllantirish va ifodalash maqsadini ko'zlagan ijodkor roman shaklini tanlaydi". Darhaqiqat, mana shu tanlov asosida romanlar turli shakl va mavzularda yozila boshlandi hamda mavzu yo'nalishiga qarab, tarixiy, siyosiy, maishiy, sarguzasht, fantastik, detektiv, avantur, utopik va hokazo kabi alohida turlarga ajraldi. Bundan tashqari, romanning oila romanlari, ayollar romanlari va tarbiya

romanlari singari turlari ham mashhur bo'lib bordi. Ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Yevropa adabiyotida tarbiya romanlarining ahamiyati katta bo'ldi.

**Asosiy qism.** Albatta, badiiy asarlarning hammasi ham qaysidir ma'noda tarbiyaviy ahamiyatga ega, ammo "Tarbiya roman"larida bu – bosh qahramonning kitobxon ko'z oldida ruhan va ma'nan ulg'ayishi va komillikka yetishishi orqali yaqqol gavdalantiriladi. Shu ulg'ayish ortida ota-onalar va farzandlar, kattalar va bolalar, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar, ular orasidagi muammo va bo'shliqlarning sabablari, yoshlar taqdiri, to'g'ri va noto'g'ri amallarning oqibatlarini, xatolardan saboq olish kabi masalalar keng yoritib beriladi. Shu jihati bilan ular boshqa romanlardan ajralib turadi. Ta'kidlash o'rinliki, tarbiya romanlari kitobxonga to'g'ridan-to'g'ri pand-nasihatchilik qiluvchi asar (pandnoma) emas. Ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborish katta xatodir. Romanning bu turida bevosita qahramonning shakllanishi, o'zgarib hayotni anglab borishi, tarbiyalanishini yoritish nazarda tutiladi. Shuningdek, yozuvchi qahramon hayoti kitobxon uchun dars bo'lishini maqsad qiladi. Tadqiqotchi N.A.Mahmudova "*Bildungsroman*" (nem.) va "*Роман воспитания*" (rus.) atamalarining o'zbekcha ekvivalenti sifatida "Tarbiya romanlari" atamasini ishlatgan. Rus tadqiqotchilari ham o'z izlanishlarida "*Роман воспитания*" terminini juda ko'p ishlatishadi. [2, 18]

Marianna Hirsh 1979-yilda yozgan maqolasida "Bildungsroman" atamasini "the novel of formation" – "shakllanish romani" deb tarjima qiladi va nemis romanlari hamda fransuz va ingliz romanlari o'rtasida shakliy, mavzuiy o'xshashliklarni qidirishga urinadi. U ingliz romanlari tashqi dunyo, ayniqsa, siyosiy-ijtimoiy tanqidga e'tibor qaratgan bir paytda, nemis romanlari faqatgina ichki o'zlikni tasvirlagan, degan fikrni asossiz deb hisoblaydi. Shu bilan birga, tarbiya romanlari bitta markaziy qahramonning hikoyasi ekanligini, didaktik roman sifatida kitobxonni protagonist tasviri orqali tarbiyalashini ta'kidlab o'tadi.[2,204]

Aslida, bu janr elementlarini turli davrlardagi badiiy asarlarda uchratish mumkin, biroq u alohida janr sifatida hali shakllanmagan edi. Adabiyotshunoslikda "*Bildungsroman*" – "*Tarbiya romani*" janri bosh qahramonning bolalikdan voyaga yetgunga qadar jismonan, ruhan, ma'nan va aqlan o'sishi hamda shaxsiyati shakllanishining badiiy realistik tasviriga qaratilgan adabiy janr bo'lib, unda xarakter o'zgarishi juda muhimdir. Unga ilk bor rasman 1910 - yilda "Britannika" qomusiy nashrida quyidagicha ta'rif keltiriladi: "*Tarbiya romani – o'sib ulg'ayish jarayoni tasviri bilan bog'liq holda qahramonning ham axloqiy, ham ruhiy rivojlanish omillarini va sabablarini tasvirlaydigan janr sanaladi*".[2,18]

Kanadaning Monreal universiteti tadqiqotchisi Aleksandra Griner shunday yozadi: "*This genre describes the processes by which maturity is achieved through the various ups and downs of life. It is definitely associated with the development of education and self realization, which are concepts highly popular following the Enlightenment age*". [3,8] Mazkur ta'rifda ham tarbiya romani qahramonning turli qiyinchiliklardan o'tib, ulg'ayishini tasvirlashi hamda ta'lim olishi, o'zligini anglashi bilan bog'liqligi izohlanayapti.

Nemis olimi Todd Kertis Kontye "In The German Bildungsroman: History of a National Genre" asarida "*Bildungsroman*"ning yuksalishiga sabab bo'lgan uchta omilni sanab o'tadi: "the changing reception of the old literature, the production of the new, and the effort to situate the new literature in the context of the growing literary tradition" [3,48] – "*eski adabiyotdagi o'zgarishning qabul qilinishi, yangisini ishlab chiqish va yangi adabiyotni o'sib borayotgan adabiy an'analar asosida joriylantirishga intilish*." (Tarjima o'zimizniki – Z.S.) Bu omillarning barchasi romantizm davrida yuzaga keladi: romanchilik romantizm uchun zarur hisoblangan shakl va mazmundan voz kechdi; u yangi shakl va mazmuni qamrab oldi va nihoyat, yagona rivojlanayotgan shaxsga qaratilgan yangi subyektivlik paydo bo'ldi. Asar uchun bosh qahramon o'rta va kambag'al sinf vakillari orasidan tanlana boshlandi, barcha voqealar shu qahramon hayoti va shaxs sifatida shakllanishini yoritishga xizmat qildi. Aniqroq qilib aytganda, qahramon kitobxon uchun yaqinroq va haqqoniy bo'lib qoldi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Iogann Volfgang Gyotening "Vilgelm Meysterning o'qish yillari" (1795-1796) asari baxt topish va o'zini anglash maqsadida sayohatga otlangan yosh yigit haqidagi asar bo'lib, ko'pchilik adabiyotshunoslar uni birinchi tarbiya romani deb hisoblashadi. Boshqa tomondan, Kristof Martin Vilandning "Agaton tarixi" ("The history of Agathon", 1767) asarini tarbiya romanlari janrining ilk namunasi deb hisoblaydigan qarashlar ham mavjud. [8,2] Mashhur romannavis Tomas Mann bu janrni "*typically German, legitimately national*" [9,199]– "*nemislarga xos, qonunan milliy*" deb ta'riflaydi.

"Vilgelm Meysterning o'qish yillari" romani asar qahramoni Vilgelm ruhiyatidagi tushkunlik, inqiroz davri bilan boshlanadi. Asarda hayotning qisqaligini tan olib, uni yaxshi shaklda o'tkazish g'oyasi ilgari suriladi. Shu bilan birga yozuvchi, sinfiy jamiyat va inson ziddiyatlarini, ota-ona va o'g'il o'rtasidagi fikrlar nomutanosibligini ko'rsatib beradi.

Nemis adabiyotining yana bir vakili Kristof Martin Viland qalamiga mansub “Agaton tarixi” (“The history of Agathon”) asari ham ilk tarbiya romani namunasi sifatida o’rganiladi. Shuningdek, bu roman “*novel of psychological development*” [16], ya’ni “ruhiy rivojlanish romani” deb ham yuritiladi.

Asar boshida kitobxon Gyote romanidagidek, bosh qahramonning tushkun holati bilan tanishtiriladi. Hayotni ideal tasavvur qilgan sodda qahramonning real hayoti butunlay boshqacha ekanligi bilan yuzlashishi, ishongan kishilaridan ko’ngli qolishi va qalbidagi savollarga javob qidirib sayohatga chiqishi asar syujetining mag’zini tashkil qiladi. Ko’rinib turibdiki, nemis adabiyotining har ikkala asarida ham hayotning turli sinovlarini yengib o’tgan qahramon, oxir-oqibat o’z yo’lini topib oladi. Mualliflar mana shu sargardonlik vositasida qahramonning ma’nan o’sib borishini yoritib berishadi. Eng muhimi, asar boshida uyidan chiqib ketgan qahramon asar so’ngida “*yangi oila*”, “*yangi uy*”da qo’nim topadi.

Manbalarda keltirilishicha [2, 19], “Bildung” atamasi birinchi marta filolog Karl Morgenshteyn tomonidan 1819-yilda Dorpat universitetidagi ma’ruzalari vaqtida aynan Gyotening “Vilgelm Meysterning o’qish yillari” asariga ta’rif berishda ishlatilgan. Keyinchalik, psixolog va faylasuf Vilgelm Diltey o’zining “*Leben Schleiermachers*” (1867-1870) (“*Life of Schleiermacher*” – “*Shleyermacher hayoti*”) asarida bu atamani qayta tilga oladi va uning keng omma uchun mashhur bo’lishiga sabab bo’ladi. [17] Garchi bu atamadan birinchilardan bo’lib foydalanmagan bo’lsa-da, Vilgelm Diltey uni tanqidiy adabiyotga olib kirishda hammadan ko’p hissa qo’shdi. Tarbiya romanlarida nemis an’anasini tadqiq qilar ekan, u birinchilardan bo’lib, bu janrga tarixiy sharoit mahsuli sifatida qaradi. Uning fikricha, “*Bildungsroman*” o’zligini va hayotdagi o’rnini topish uchun kurashadigan yosh kishilarni tasvirlovchi janrdir. [8,16] “*Experience and Poetry*” (“*Tajriba va she’riyat*”, 1906) asarida esa V.Diltey quyidagi ta’rifni keltiradi: “*Bildungsromans all portray a young man of their time: how he enters life in a happy state of naiveté seeking kindred souls, finds friendship and love, how he comes into conflict with the hard realities of the world, how he grows to maturity through diverse life-experiences, finds himself, and attains certainty about his purpose in the world*”. [10, 22] Ta’rifda keltirilishicha, tarbiya romanlarining barchasi o’z davri yosh kishisini: uning qanday qilib soddadillik bilan qadrdon qalblarni qidirganicha hayotga kirib kelishi, do’stlik va muhabbatni topishi, hayotning achchiq haqiqatlari bilan qay tarzda to’qnash kelishi, og’ir hayotiy tajribalar orqali ulg’ayishi, o’zligini topishi va albatta, hayotidagi maqsadning aniqligiga yetib kelishini tasvirlaydi.

Fransua Jost esa “*Bildungsroman is concerned with a protagonist who confronts his environment and is shaped and nurtured by the outside world till a point when he is ready to live his life in his own way*” [10, 201] – “*Tarbiya romani – tashqi muhitga qarshi tura oladigan, to o’z yo’li bilan yashay olishga tayyor bo’lguniga qadar tashqi dunyo ta’sirida tarbiyalanadigan va shakllanadigan qahramon haqida*”, – deb hisoblaydi. Anglashilyaptiki, keltirilgan ta’riflarning barchasi yosh qahramonning qaysidir jihatdan o’sishi bilan aloqadorlikni ko’rsatadi. Bu o’rinda, adabiyotshunos D.Bakli tarbiya romanlarini tadqiq qilar ekan, unga har tomonlama rivojlanish yoki o’z-o’zini takomillashtirish romani deb tavsif beradi. Bakli xulosasiga ko’ra, bunday romanlar qahramonning shaxsiy tajribasiga tayanib, o’z imkoniyatlarini umumlashtirishga ongli ravishda qiladigan harakatlari in’ikosidir. [11,13]

Tarbiya romanlari tadrijida M.M.Baxtinning 1936-1938-yillarda nashr qilingan “*Tarbiya romani va uning realizm tarixida ahamiyati*” (“*Роман воспитания и его значение в истории реализма*”) nomli kitobi alohida e’tiborga molik. Muallif tarbiya romanlarini sarguzasht va biografik romanlar ta’siri ostida shakllangan deb hisoblaydi. Uning fikricha, “*dominantlik qilgan bu turlar bilan bir qatorda, shakllanib kelayotgan shaxs qiyofasini beruvchi yana bir tur mavjud. Turg’un birlikdan farqli o’laroq, bu yerda faol birlik bor. Qahramonning o’zi va uning xarakteri bu roman formulasida o’zgaruvchan bo’ladi. Uning o’zgarishi asar syujetini tashkil qiladi, shu sababli syujet qayta quriladi. Romanning bu turini umumiy qilib, “insonning shakllanish romani” deb aytish mumkin*”. [12, 200]

A.V.Dialektova tarbiya romanlarining nazariy asoslarini yoritib, unga quyidagicha ta’rif beradi: “*Tarbiya romani atamasi, eng avvalo, syujet tuzilmasida qahramonni tarbiyalash jarayoni hukmron bo’lgan asarni nazarda tutadi. Qahramonning hayoti sarguzasht romanlarida bo’lgani kabi kurash maydoniga emas, maktabga aylanadi*”. [13,36] Bu o’rinda qahramon asosiy ta’lim-tarbiyani maktabdangina emas, balki hayotdan olishi anglashiladi. Chunki, qahramonda maktab borishga har doim ham imkon bo’lavermaydi yoki maktabda sifatli ta’lim olish uchun sharoit bo’lmaydi.

N.B.Osipova esa Ch.Dikkens, U.Tekkeriy va T.Gardilar ijodini tahlil qilib, shunday xulosani ilgari suradi: “*Tarbiya romani ijtimoiy olamga kirib, unda o’z o’rnini topgan shaxsning dinamik qiyofasini o’zida mujassam etgan romandir*”. [14,13] Ushbu ta’rifda qahramonning shakllanishida jamiyat hamda ijtimoiy muhitning ahamiyati katta ekanligi ta’kidlanayti.

Tomas L. Jeffers "Apprenticeships: The Bildungsroman from Goethe to Santayana" (2005) asarida janring tarixiy ildizlari borasida fikr yuritadi va uning Gyote romani ta'sirida yuzaga kelib, Viktoriya asri hamda zamonaviy davr adabiyotiga o'tganligini ta'kidlaydi. [3,14] Viktoriya asri yozuvchilaridan, ayniqsa, Ch. Dikens tarbiya va shaxsni rivojlantirish muammolariga kuchli qiziqish bildiradi va deyarli barcha romanlarida buni aks ettiradi. Ammo yuqoridagi qarashlarga teskari fikrlar ham mavjud. Aleksandra Grinerning tadqiqotida keltirilishicha [3,49], bir guruh tanqidchilar yangi roman janri elementlari ingliz adabiyotida Gyote asari inglizchaga tarjima qilinmasidan oldin ham mavjud bo'lganligiga ishonishadi va uning rivojida nemis adabiyoti ta'sirini rad qilishadi. Ularning ta'kidlashicha, "Bildungsroman" romanchilikda ilgari mavjud bo'lmagan "ta'lim olish" va "o'ziga nisbatan qat'iyatlilik" tushunchalarini birlashtirar ekan, bunday motivlardan XVIII asrda ijod qilgan ingliz romannavislari Daniel Defo va Jonatan Sviftlar o'z asarlarida allaqachon foydalanishgan. Ularning prototiplari allegorik yo'l bilan hayotdan saboq olishgan bo'lsa, "Bildungsroman" da bu ancha sodda yo'l bilan, ya'ni qahramonning ta'lim olish va dunyoni o'rganish uchun otlangan sayohatlari orqali ochib berilgan. Buni, ayniqsa, 1749-yilda yozilgan "Topildiq Tom Jons tarixi" asarida ko'rish mumkin. Rus olimi M.M. Baxtin o'zining "Tarbiya romani va uning realizm tarixidagi ahamiyati" asarida Fildingning "Topildiq Tom Jons tarixi" romanini nafaqat tarbiya romani deb ta'riflaydi, balki unda nemis yozuvchisi Viland qalamiga mansub "Agaton tarixi" romani bilan bog'liqlik mavjudligini ham ta'kidlab o'tadi. [15,51]

Biroq Amerika adabiyotshunosi Gisela Argayl ingliz romanlaridan "Bildungsroman" janri elementlarini "Vilgelm Meysterning o'qish yillari" asari tarjimasidan keyingina qidirish kerakligini ta'kidlaydi. [15,48] Ko'pgina olimlar singari u ham ingliz adabiyotida tarbiya romaniga 1824-yildan oldin (Gyote asari tarjima qilingan yil) misol topish mumkin emas, degan qarashni ilgari suradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, tarbiya romanlari dastlab qayerda yaratilganligi xususida turli qarashlar mavjud bo'lishiga qaramay, bu roman – sodda va yosh qahramonning hayot borasidagi savollarga javob qidirib, sayohatga otlanishi, hayotda o'z o'rnini topishga urinishi va oxir-oqibat dunyo haqida boy tajriba orttirishi orqali o'sib-ulg'ayishini, balog'atga yetishishini aks ettiruvchi asardir.

Bu janr o'z taqdirini izlab yo'lga chiqadigan qahramon tasvirlangan xalq ertaklaridan kelib chiqqan. Ma'lumki, turli millat ertaklarida baxtini qidirib darbadar kezish motivi mavjud. Ularning bari bosh qahramonning saodatga erishishi bilan yakunlanadi. Tarbiya romanlari mushtarak syujet chiziqi asosida rivojlanib boradi hamda qahramon hayotining davom etgan ma'lum muddatini aks ettiradi. Bunday asarlar ommabopligi va yosh avlodning tarbiyasiga ta'sir ko'lamini jihatidan adabiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Thamarana S. *Origin and Development of Bildungsroman Novels in English Literature. International Journal of English Language, Literature and Humanities. India, Volume III, Issue VI, August 2015 – ISSN 2321-7065.*

2. Махмудова Н.А. *Чарльз Диккенс и жодид тарбия романи жанри типологияси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореф. – Тошкент, 2020. – 176 б.*

3. Alexandra Grenier. *A Romantic Bildung: The Development of Coming-of-Age Novels in the Romantic Period (1782-1817).* – August. – 2016. – 241 p.

4. Safarova Z. (2022). *J.K. Roulingning "Garry Potter va Afsonaviy tosh" asarida yetim obrazlar tasviri.* *Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 14(14).* *извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/6682](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6682)*

5. Safarova, Z. (2022). *Ch. Dikkansning "Denik Kopper" asarida "Tarbiya romanlari" ga xos xususiyatlar tahlili.* *Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 22(22).* *извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8019](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8019)*

6. Musoeva Aminabonu, & Safarova Zilola Tolibovna. (2021). *Orphanhood in "David Copperfield" by Charles Dickens.* *Archive of Conferences, 28(1), 1-3.* Retrieved from <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1133>

7. Safarova, Z. (2022). *Реалистичное художественное изображение жизни сирот в романе Диккенса «Оливер Твист».* *Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 13(13).* *извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/6680](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6680)*

8. Sarah Graham. *A history of the Bildungsroman*. – United Kingdom: Cambridge University Press, 2019. – 352 p.
9. Abhisek Upadhyay. *The Name and Nature of the Bildungsroman*. *International Journal of English and Studies (IJOES) An International Peer-Reviewed Journal*; Volume-3, Issue-1, 2021 [www.ijoes.in](http://www.ijoes.in) ISSN: 2581-8333; Impact Factor: 5.421(SJIF). – P. 199.
10. Anniken Telnes Iversen. *Change and Continuity: The Bildungsroman in English: A dissertation for the degree of Philosophiae Doctor University of Tromsø*. September, 2009. – 396 p.
11. Buckley, Jerome Hamilton. *Season of Youth: The Bildungsroman from Dickens to Golding*. Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1974. – 352 p.
12. Бахтин М.М. *Роман воспитания и его значение в истории реализма* – М.: Искусство, 1979. – 511 с.
13. Дialeктова А.В. *Воспитательный роман в немецкой литературе эпохи Просвещения*. – Саранск: Изд-во СГПИ, 1972. – С. 36.
14. Осипова Н.В. *Роман воспитания в творчестве Ч. Диккенса, У. Теккерея, Т. Гарди: учебное пособие для студентов филологических специальностей / Н. В. Осипова; Балашовский филиал Саратовского гос. ун-та им. Н. Г. Чернышевского*. – Балашов: Николаев, 2006. – С. 13.
15. Сарана Н.В. *Традиция английского романа воспитания в русской прозе 1840-1860-х годов: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук*. – Москва, 2018. – 218 с.
16. <https://www.britannica.com/topic/The-History-of-Agathon>.
17. <https://www.masterclass.com/articles/what-is-a-bildungsroman-definition-and-examples-of-bildungsroman-in-literature>.